

## ZOMINSUV HAVZASI TEROFIT O'SIMLIKLARI

*Jizzax davlat Pedagogika Universiteti magistranti*  
*Oripova Mahliyo Bahodir qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zominsuv havzasida tarqalgan terofit o'simliklar haqida ma'lumot berilgan. Ularning dorivorlik, xo'jalik, va amaliy ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Zominsuv, terofit, farmasevtika, Duoba, xrizantema, moychechak, bioekologiya, magnoliyatoifa, qarag'aytoifa.

Dunyoda biologik xilma-xillikni saqlash, o'simliklar olamini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish global muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, o'simlik turlarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish, introduksiya ishlarini olib borish, muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish, noyob va kamayib borayotgan turlarini aniqlash va ularni saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda terofit o'simliklar alohida ahamiyatga ega.

Zominsuv — Zomin tumanidagi soy. Yuqori oqimida Yettikechuv, Duoba qishlog'i yaqinida Sanganaksoy, Zomin shaharchasi yaqinida joylashganligi uchun Zominsuv deb ataladi. Turkiston tizma tog'ining qariyb 2500 m balandlikdagi shimoli-g'arbiy yon bag'irlaridan boshlanuvchi O'rikli soy, Gal-diravo't, Yettikechuv va boshqa soylarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Zominsuv Sirdaryo – Xovos — Jizzax temir yo'lga yetmasdan Qo'shtamg'ali qishlog'idan 3,5 km janubi sharqda tugaydi. Uzunligi 58 km, havzasining maydoni 704 km<sup>2</sup>. Zominsuv ko'proq qor, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi 1,83 m<sup>3</sup>/sek. (Duoba qishlog'i yaqinida), eng katta suv sarfi 16,8 m<sup>3</sup>/sek (1969.28.05). To'linsuv davri (aprel — avgust)da yillik sarfining 60—65% oqib o'tadi, qishda ba'zan qurib qoladi. Eng sersuv oy — iyunda o'rtacha suv sarfi 4,56 m<sup>3</sup>/sek ga teng. Zominsuvdan Zomin shaharchasi, Duoba, Yettikechuv, Qushchi va boshqa qishloqlar suv ichadi, ekin maydonlari sug'oriladi.

Bir yillik o'simliklar — barcha hayotiy sikllari bir vegetatsiya davrida, ya'ni bir yil davomida urug'idan unib chiqib, o'sib, gullaydigan va nasl qoldirib quriydigan o'simliklar. Bir yillik o'simliklar orasida butun rivojlanish jarayoni bir necha hafta ichida tugaydigan efemer o'simliklar guruhi ajralib turadi. Cho'l va dasht sharoitlarida efemerlar kuz, qish yoki bahorda o'sadi. Ular yilning ko'p davrini urug' holida o'tkazadi. Namligi yetarli zonalarda efemerlar (masalan, yulduzo't, qo'ng'irbosh) bir vegetatsiya davrida bir necha bo'g'in berishi mumkin.

Систематик гурухлар	Миқдори	Тurlar umumiy soniga nisbatan % Hisobida		
	Oilalar	Turkumlar	Turlar	
Qirqbo‘g‘intoifa	1	1	2	0,38
Qarag‘aytoifa	2	2	7	1,36
Magnoliyatoifa jumladan:	58	246	507	98,26
Magnoliyasimonlar	49	213	434	84,11
Lolasimonlar	9	33	73	14,15
Jami:	61	249	516	100

№			
			3
			1
	h		6
	h		3
	Ko‘p yilliklar		4
			3
	Bir yillik o‘tlar		1
			100

Vegetatsiya davri uzoq kechadigan Bir yillik o‘simliklar bahorgi va kuzgilarga bo‘linadi. Bahorgi Bir yillik o‘simliklar bahor va yoz oylarida o‘tib, hayot tsiklini 1 - 5 oyda tugatadi. Kuzgi Bir yillik o‘simliklarning urug‘lari kuzda darhol unib chiqib, tomiroldi barglari rivojlanadi va shu tarzda qor tagida qishlab chiqadi. Bahorda ular rivojlanishni davom ettiradi — gullaydi, urug‘ berib, keyin qurib qoladi. Bu guruhga kuzgi javdar, burdoy, shuningdek ko‘pchilik begona o‘tlar (jag‘jag‘, bo‘tako‘z va boshqalar) kiradi. Bir yillik o‘simliklar o‘zgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan kup yiplik o‘simshklarning evolyutsiya jarayonida shakllangan.